



TIBBIYOT SOHASIGA OID TERMINLARNI O‘RGATISHDA GRAFIKLI CHIZMALARDAN FOYDALANISHNING DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Ermatova Rano Omonovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Lotin tili fani katta o‘qituvchi

Beknazarova Mohiya Kenjaevna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Tillar kafedrası assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot terminologiyasini o‘rgatish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari va samarador yondashuvlar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Tibbiyot terminologiyasi tibbiy sohaning maxsus tili bo‘lib, o‘zining aniqligi va to‘g‘ri qo‘llanilishi bilan bemorlar bilan muloqotda, diagnostika va davolash jarayonida hamda ilmiy tadqiqotlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: pedagogic texnologiya, interfaol metod, klaster, vein diagrammasi, grafik chizma, grafik tashkillashtiruvchi, talaba tafakkuri

Annotation: This article provides detailed information about the specific features and effective approaches to teaching medical terminology. Medical terminology is a special language of the medical field, and its accuracy and correct use are crucial in communicating with patients, in the diagnostic and treatment process, and in scientific research

Key words: pedagogical technology, interactive method, klaster, vein diagram, graphic drawing, graphic organizer, student mindset

Аннотация: В статье представлена подробная информация об особенностях и эффективных подходах к преподаванию медицинской терминологии. Медицинская терминология — это особый язык медицинской сферы, точность и правильность использования которого имеют решающее значение в общении с пациентами, в диагностическом и лечебном процессе, а также в научных исследованиях.

Ключевые слова: педагогическая технология, интерактивный метод, кластер, графический рисунок, графический органайзер, мышление ученика.

KIRISH

Tibbiy terminologiya ko‘pincha murakkab tuzilishga ega bo‘lib, lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan. Bu terminlarni samarali o‘rgatish uchun maxsus metodikalarga asoslangan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish talab etiladi. Tibbiy terminlarni o‘rgatishda talabalarga ko‘rgazmali materiallar va texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi amaliy


mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega. Misol uchun, vizual materiallardan, jumladan, grafiklar, diagrammalar va anatomik tasvirlardan foydalanish terminlarning ma‘nosini osonroq tushunishga yordam beradi. Yangi pedagogik texnologiya ta‘limning ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Aksariyat hollarda o‘qituvchi dars jarayonida faqat o‘zi ishlaydi, talabalar esa kuzatuvchi bo‘lib qolaveradilar. Ta‘limning bunday ko‘rinishi talabalarning aqliy tafakkurini o‘stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta‘lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so‘ndiradi

Ta‘limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi esa o‘qitish tizimida talabani dars jarayonining markaziga olib chiqish, talabalarni o‘quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina talabalar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o‘tiladigan mavzularning amaliyotga tadbiq etilishi bo‘yicha o‘z fikriga ega bo‘ladi, o‘z nuqtai nazarini asoslab bera oladi.


Metod: Ta‘limda o‘qituvchi interfaol metodlarni mavzuga muvofiq‘ini tanlay bilishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchi interfaol metodlardan avvalo oddiydan murakkabga o‘tish nazariyasiga amal qilgan holda foydalanmog‘i lozim. Ushbu nazariyaga asosan dars jarayonida qo‘llanayotgan oddiy metodlarga quyidagilarni kiritish mumkin: kichik guruhlarda ishlash, juftliklarda ishlash, jamoa bilan ishlash, “Aqliy hujum”, “Klaster” usullari. Murakkab metodlar qatoriga matnni tahlil qilish, zigzag, Venn diagrammasi, Rezyume kabilarni kiritish mumkin.

Shuningdek, ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar talabalarni bilimlarining yaxlit o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Talaba tafakkurini o‘stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Zero, uchinchi renesans davrida barkamol avlod tarbiyasi jamiyat madaniy-ma‘rifiy taraqqiyotining, millat ma‘naviy kamolotining muhim belgisidir. Ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillarni to‘xtovsiz tahlil qilish, mutaxassislarning uzluksiz malakasini oshirish hamda qo‘yiladigan uslublarning nechog‘lik mosligiga to‘g‘ri baho berish tamoyillarini belgilaydi va ta‘limning olinishi zarur bo‘lgan natijasini ifodalaydi. Mana shu tamoyillarga tayanib ta‘lim jarayoni samarali bo‘lishini ta‘minlaydigan texnologiya yangi pedagogik texnologiya hisoblanadi.


“Klaster” (klaster-tutam, bog‘lam) grafik chizmasi axborot xaritasini tuzish yo‘li bo‘lib, barcha tuzulmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ishdir. Bu grafik tashkillashtiruvchi bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat mavzu nomi yoziladi. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalarda “yo‘ldoshlar” yozib qo‘yiladi. Ularni asosiy so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugaguncha davom etishi mumkin.



“Baliq skeleti” grafik tashkillashtiruvchisi yordamida mavzu so‘ralayotganda yoki mustahkamlanayotganda chizmani tuzish qoidasi bilan talabalar tanishtiriladi. Kichik guruhlarda yuqori “suyagi”da kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa ushbu kichik muammoning yechimlari ko‘rsatiladi. Talabalar kichik guruhlarda birlashadilar, taqqoslaydilar, chizmani to‘ldiradilar, namoyish qiladilar




“Nima uchun” grafik chizmasi yordamida talabalar mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, tahlil qilish, umumlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari mumkin. “Nima uchun” grafik chizmasi muammoning dastlabki sabablarini aniqlash fikrlar zanjiridir. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanida “Nima uchun” grafik chizmasini tuzishda talabalar qoidalar bilan tanishadilar, kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar, “Nima uchun” so‘rog‘ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning sababi aniqlanmaguncha davom etadi.




“Venn diagrammasi” grafik tashkillashtiruvchisi 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarni solishtirish yoki taqqoslash, qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Bu grafik chizmalardan foydalanish talabada tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

OT. NOMEN SUBSTANTIVUM



“Qanday ierarxik grafikli tashkillashtiruvchisi vujudga kelgan muammoning sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo‘llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o‘rganish uchun muhim vazifalardan biridir.



“Qanday ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradigan savollarning mantiqiy zanjiri ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ketma-ket ravishda “Qanday” savolini qo‘yish orqali talaba faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o‘rganadi.

Natija: Turli guruhlarda turli yillarda bir hil usullarni qo‘llab ko‘rib bir guruh talabalari bilan yaxshi natijaga erishgan bo‘lsak, ikkinchi guruh bilan bu usul kutilgan natija bermadi. Bir guruhdagi lider talabalar fanni yaxshi o‘zlashtirishlari va guruhning o‘zlashtirishida yaxshi yetaklovchi bo‘lishi sezildi, lekin ayrim talabalarning dunyoqarashi torligi, bilimining yetarli emasligi, loqaydligi kabi kamchiliklar kutilgan natijaga erisha olmaslikga sabab bo‘ldi. Talabalarning dunyoqarashi, bilimi, ma‘lumotlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalari noan‘anaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirishi mumkin. O‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, o‘z kasbini yaxshi ko‘rishi, fidokorligi va yoshlar bilan ishlashda moslashuvchanligi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishga, kutilgan natijani olishga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa: 1. Tibbiyot sohasiga oid terminlarni o‘rgatish maxsus yondashuv va metodikalarni talab qiladi. Amaliy mashg‘ulotlarda terminologiyani o‘rgatishda kontekstual, interfaol va texnologiyalarga asoslangan usullarni qo‘llash talabalar bilimini chuqurlashtiradi va ularning kasbiy kompetensiyasini oshiradi. Kelajakda o‘qitish metodikalarini takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarni kengroq qo‘llash va talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Yangi pedagogik texnologiyalardan va grafikli tashkil etuvchilardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchining o‘zi ko‘plab dars mashg‘ulotlarida takrorlash orqali asl mohiyatni tushunib

yetishi kerak. Talabalar bilan do‘stona munosabatdagina pedagogik texnologiyalarda kutilgan natijaga erishish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi va talabalardan bir xilda mas‘uliyat talab etiladi. Guruh talabalarining dunyoqarashi pedagogik texnologiyani qo‘llashga mos kelishi kerak. Buning uchun dastlabki mashg‘ulotlarda guruhni sekin-sekin jarayonga tayyorlab borish kerak. Kutilgan natijaga erishish uchun oqituvchi tomonidan vaqtni aniq belgilash, biroz qattiqqo‘llik (qo‘pollik emas) talab etiladi. Buning uchun o‘qituvchi talabalar orasidagi hurmatni yo‘qotib qo‘ymaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.R.M.Abdullaeva,M.A.Saydullayeva, S.S‘H.Rustamova,O.S.Paymina “Lotin tili va terminologiya” Toshkent., 2020

2.M.H.Boliyev “Lotin tili va tibbiy terminologiyasi”Abu ali ibn sino nomidagi tibbiyot nashriyoti , Toshkent., 2002

3.G.S .Agzamova, Z.F. Umarova “Terapiya fanlarini o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar” moduli bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmua. Toshkent .,2019

4.М.Н. Чернявский «Латынский язык и основы медицинской терминологии». 1989

5 М.Н. Исроилова.Изучения латинского языка как фактора интеллектуального и культурного развития студентов - медиков. Ташкент: «Fan va texnoiogiya», 2011.

6. R. O. Ermatova. “Tibbiy atamalarni shaklantirishda prefiksatsiya usuli” Tamaddun nuri-2024.2-son 277-279.